



BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISH, DASTLABKI TABIATSHUNOSLIK BILIMLARINI BERISHNING PEDAGOGIK USULLARI.

Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi.

Xursanova Mohinur Abdujabbor qizi Guliston davlat pedagogika instituti 2-
bosqich magistrantlari. e-mail: adasoj386@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinfi o'quvchilarini tabiat bilan tanishtirishning maqsad va vazifalari, tanishtirish jarayoni hamda uning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati bilan birgalikda tabiatshunoslikning dastlabki tushunchalarini shakllantirishda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik yondashuvlar keng qamrovda izchil yoritiladi. Tabiat haqidagi bilimlar o'quvchilarning idrok, tafakkur, nutq, mustaqil va mantiqiy fikrlash va ekologik madaniyatini rivojlantirishda hamda kelgusi hayotida muhim omil ekanligi ilmiy asoslar bilan ko'rsatib beriladi. Boshlang'ich ta'limda tabiatshunoslikni o'qitishning psixologik hamda pedagogik asoslari, yosh xususiyatlariga mos metodlar va media vositalarining tanlanishi, o'quvchilarning atrof-muhit bilan bevosita muloqoti orqali faol ta'lim jarayonini tashkil etish usullari yoritiladi. Shuningdek, tabiiy obyektlar bilan ishlash, ekologik kuzatuvlar yuritish va oddiy ilmiy izlanishlarni tashkil qilish orqali o'quvchilarda ekologik mas'uliyat, tabiatga ehtiyotkorlik va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish tahlil qilinadi. Maqolada keltirilgan metodik taklif va tavsiyalar o'quvchilarga boshlang'ich sinfi tabiatshunosligi darslarini mazmunan boyitish, o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularni faol tadqiqotchiga aylantirish hamda tabiatni chuqur anglashga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, tabiat bilan tanishtirish, ekologik tarbiya, metod, metodika, kuzatuv, jonli tabiat burchagi, amaliy mashg'ulotlar, texnologiya, interaktiv testlar.

Abstract

In this article, the goals and tasks of introducing primary school students to nature, the process of familiarization, and its educational significance are thoroughly and consistently explained. It also provides a broad discussion of modern pedagogical approaches used in forming the initial concepts of natural science. Knowledge about nature is shown, on scientific grounds, to be an essential factor in developing students' perception, thinking, speech, independent and logical reasoning, as well as their



ecological culture and future life skills. The psychological and pedagogical foundations of teaching natural science in primary education, the selection of age-appropriate methods and media tools, and the organization of an active learning process through students' direct interaction with the environment are described. Likewise, the article analyzes how working with natural objects, conducting ecological observations, and organizing simple scientific investigations help develop ecological responsibility, care for nature, and practical skills in students. The methodological recommendations presented in the article serve to enrich the content of primary school natural science lessons, increase students' interest, transform them into active young researchers, and effectively organize a teaching process aimed at a deep understanding of nature and a careful attitude toward the environment.

Keywords: primary education, introduction to nature, environmental education, method, methodology, observation, corner of living nature, practical activities, technology, interactive tests.

Аннотация

В данной статье последовательно и всесторонне раскрываются цели и задачи ознакомления учащихся начальных классов с природой, процесс этого ознакомления и его учебно-воспитательное значение, а также современные педагогические подходы, применяемые при формировании первоначальных представлений по естествознанию. Показано на научной основе, что знания о природе являются важным фактором развития восприятия, мышления, речи, самостоятельного и логического мышления учащихся, их экологической культуры и будущей жизненной компетентности. Освещаются психологические и педагогические основы преподавания естествознания в начальном образовании, выбор методов и медиасредств в соответствии с возрастными особенностями, а также способы организации активного учебного процесса через непосредственное взаимодействие учащихся с окружающей средой. Кроме того, анализируется формирование у школьников экологической ответственности, бережного отношения к природе и практических навыков путем работы с природными объектами, проведения экологических наблюдений и организации простых научных исследований. Методические рекомендации, представленные в статье, помогают учителям обогатить содержание уроков естествознания в начальной школе, повысить интерес учащихся, превратить их в активных исследователей и эффективно организовать учебный процесс,



направленный на глубокое понимание природы и бережное отношение к окружающей среде.

Ключевые слова: начальное образование, ознакомление с природой, экологическое воспитание, метод, методика, наблюдение, уголок живой природы, практические занятия, технология, интерактивные тесты.

KIRISH:

Bugungi kunda mamlakatimizda mavjud barcha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat va atrof-muhit bilan tanishtirish mashg'ulotlari tashkil qilinganligi e'tiborga sazovordir. Resbulikamiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Eng muhim masala –aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin». Respublikamizda barcha boshlang'ich maktablarda atrof-muhit mavzulari "Tabiiy fanlar" nomi ostida o'tiladi. Ammo umumta'lim va o'rta maktablarda aynan ekologiya darslari mavjud emas. Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchilarning har tomonlama yetuk, tabiat hamda jamiyat bilan uyg'un yashay oladigan barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qilishi kerak. Boshlang'ich ta'lim bu jarayonning eng muhim va ajralmas bosqichlaridan biri sanaladi. Ayni mana shu davrda bolalarda hayotiy qarashlar, dunyoqarash, tabiat haqida tushunchalar, atrof-muhitga bo'lgan munosabat shakllana boshlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiat, ekologiya bilan tanishtirish ta'lim-tabbiyaning ajralmas hamda muhim tarkibiy qismi sanaladi. Tabiiy fanlar boshlang'ich ta'limning asosiy fanlaridan biri sifatida bolalarning ilmiy tafakkurini, kuzatuvchanligini, diqqatini, sabr-toqatini, fikrlash va fikrlari asosida tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Buning natijasida bola tabiatga nisbatan ehtiyotkorona, ongli ravishda hurmat bilan munosabatda bo'lishga undaydi. Bolalarda tonggi kuzatishlar, tajribalar, ekskursiyalar orqali tabiatning go'zalligi va uni ko'z qorachig'idek asrash zarurligi haqida bilim va tushunchalar shakllantiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning tabiatga bo'lgan qiziqishini shakllantirish ularning umumiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlashini



kengaytirish bilan birga, ekologik tarbiyani yo'lga qo'yishning ham muhim omili sanaladi. Chunki bolaning tabiat haqidagi ilk tasavvurlari maktabgacha ta'lim bosqichida boshlanib, aynan maktab davrida barqarorlashadi va keyingi ta'lim bosqichlarida chuqurlashib boradi. Shu tomondan, ushbu jarayonda boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik yondashuvi, qo'llaydigan usullari hamda texnologiyalari va o'quvchilarni jarayonga jalb etish darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Dastlab, bolalarda tabiatga bo'lgan qiziqishni uyg'otish uchun ular faol ishtirok etadigan o'quv jarayonini tashkil etish kerak bo'ladi. O'quvchilar tabiat hodisalarini nafaqat o'qituvchi tushuntirgan holda, balki o'z kuzatuvlari orqali idrok etganlarida mavzuga bo'lgan ijobiy munosabat va qiziqish ancha kuchliroq shakllanadi. Misol uchun, o'quvchilar, fasllarning almashinuvi, o'simliklarning o'sishi yoki hayvonlarning turmush tarzi, tabiat hodisalarini o'z ko'zlari bilan kuzatganlarida mavzuni chuqurroq anglaydilar hamda bu ularda tabiiy ravishda qiziqish uyg'otadi. Shu bilan birga, tabiiy fanlarni o'qitishda tajribalar va amaliy mashg'ulotlarning o'rni ham beqiyos sanaladi. Boshlang'ich sinf darajasida, asosan, sodda tajribalar — urug'ning unishi, suvning bug'lanishi, soyada va quyoshda haroratning farqi kabi mashg'ulotlardan foydalaniladi. Bunday tajribalar bolalarning kuzatuvchanligini oshirish bilan birga, ularda "nima uchun?", "nimaga?" kabi savollarini ko'paytiradi va izlanishga, sababini bilishga undaydi. Aynan mana shu izlanish esa qiziqishning eng kuchli manbai hisoblanadi. Tabiatga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda o'yin texnologiyalari ham juda samarali bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin — o'rganishning tabiiy shakli sanaladi. O'simliklar va hayvonlar xususidagi rolli o'yinlar, ekologik topshiriqlar asosida tuzilgan didaktik o'yinlar, interaktiv testlar va rebuslar o'quvchilarda fikrlash, farqlash, tahlil qilish, analiz qilish, sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu o'yinlar ularda tabiatni asrash, unga mehr hamda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish tuyg'ularini vujudga keltiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalaridan foydalanish ham bugungi kunda zamonaviy dars jarayonining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Multimediali resurslar, animatsion videolar, virtual laboratoriyalar va 3D modellar tabiat hodisalarini real va qiziqarli tarzda namoyish qilish imkoniyatini beradi. Misol uchun, hayvonlarning yashash muhiti, o'simliklarning o'sish jarayoni, koinot tuzilishi, kometalar harakati, quyosh va oy tutilishi yoki vulqon portlashi kabi murakkab jarayonlarni videoroliklar orqali tushuntirish bolalarning mavzuga bo'lgan diqqatini yanada kuchaytiradi. Bu esa o'z navbatida darsni nafaqat samarali, balki mazmuniy jihatdan boy va qiziqarli bo'lishiga xizmat qiladi. Bolalarning tabiatga bo'lgan qiziqishini mustahkamlashning yana bir muhim usuli — o'quvchilarni amaliy



faoliyat, amaliy mashg'ulotga jalb qilish. Masalan, maktab hovlisida gul ekib parvarishlash, daraxt yetishtirish, qushlar uchun uyacha yasash, chiqindi qog'ozdan foydalanish bo'yicha kichik loyihalar kabi faoliyatlar o'quvchilarning ekologik fikrlashini hamda qiziqishlarini yanada rivojlantiradi. Bunday faoliyatlar o'quvchilarga tabiatni faqat oddiy o'rganish emas, balki uni jonimizdek asrash zarurligini ham his ettiradi. Natijada, bolalar tabiatga nisbatan mas'uliyat bilan qarab voyaga yetadilar. Bundan tashqari, ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan ekskursiyalar, sayohatlar, muzeylarga, hayvonot bog'lariga va tabiat bog'lariga tashriflar ham o'quvchilarning tabiat haqidagi bilimlarini mustahkamlashda, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishida katta ahamiyat kasb etadi. Real tajribalar orqali o'quvchilar tabiat boyliklarini ko'rish bilan birga ular haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'lishadi. O'simlik dunyosi (flora) va hayvonot dunyosi (fauna) haqida kengroq tasavvurga ega bo'lishadi. Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga nisbatan qiziqishni shakllantirish ko'p qirrali, tizimli va izchil pedagogik jarayonni talab etadi. O'qituvchining dars jarayonini rejalashtirishdagi kreativligi, tashabbuskorligi, o'quvchilar psixologiyasini chuqur bilishi, samarali metodlardan foydalanishi, multimediyadan foydalanishi o'quvchilarda tabiatni sevis, uni qadrlash va unga ongli ravishda munosabatda bo'lish kabi ko'nikmalarini shakllantiradi. Buning natijasida, o'quvchilar nafaqat tabiiy fanlar haqida puxta bilimga ega bo'ladilar, balki ekologik madaniyat hamda ekologik tarbiyaning dastlabki zaminlari ham mustahkamlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan yana biri – aniq-obrazli tafakkurdan mavhum-mantiqiy tafakkurga o'tish sanaladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayoni eng avvalo bilishning hissiy bosqichida sodir bo'ladi. Ya'ni bola atrof-muhit haqida dastlab beshta sezgi a'zosi yordamida tasavvurga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda tafakkur shakllari ham muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish tasniflash, taqqoslash, tahlil qilish, o'xshatish, analiz, sintez, mavhumlashtirish, umumlashtirish, tizimlashtirish yordamida ham amalga oshiriladi. Shunday qilib, bolalarda atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish to'g'risida doimiy qayg'urishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Afsuski, bugungi kunda biz kundalik ishlarga va tashvishlar bilan band bo'lib, jonli va jonsiz tabiat dunyosi abadiy emasligini, unga insoniyat tomonidan ko'proq zarar yetayotganligini bevosita his qilmay qo'ydik. Tabiiy boyliklar hamda tabiiy ne'matlar



abadiy emasligini, bola ongiga singdirish, albatta, bolalikdan ta'lim va tarbiyani uzviyligini ta'minlash asosida olib borilishi lozimligini yoddan chiqarmasligimiz shart. Bundan kelib chiqadiki, ekologik ta'limning asoslarini, hatto, maktabgacha yoshdan boshlab bolalar ongi va ruhiyatiga singdirib borish kerak hisoblanadi. Shu o'rinda ekologiya so'zining etimologiyasiga to'xtalib e'tibor qaratib o'tsak, «Ekologiya» so'zi yunoncha «oikos» – «vatan, uy» va «logos» – «fan, ta'limot» ma'nosidagi so'zlardan tashkil topgan bo'lib, birgalikda yashaydigan tirik organizmlarning o'zaro bir-biri bilan hamda tevarak-atrofdagi muhit bilan munosabatini, shuningdek, olam va biosfera o'rtasidagi munosabat masalalarini ham o'rganuvchi fan nomini anglatadi. Ekologik tarbiya, dastlab, bolalarni insonparvarlik, xayrixohlik, hissiy munosabat va ularning atrofidagi dunyoga qiziqishini tarbiyalashga hissa qo'shadi. Zero, atrof-muhitning o'quvchi ongiga ta'siri juda kattadir. Sababi har kuni bolalar bevosita yoki bilbosita atrof-muhitdagi turli narsalar yoki hodisalar bilan aloqaga kirishadilar. Ya'ni ular qushlarni, hasharotlarni, hayvonlarni, qishda qor parchalarini, muzni, bahorda shudring hamda gullarni, kuzda daraxtlarning sarg'aygan barglarini, yomg'irni, kuzatishadi, tabiat haqidagi she'rlar va hikoyalarni tinglashadi va o'zlari ham hikoya va she'rlar yozishadi. Shu bilan birga, tabiat hodisalari, o'simliklarga va hayvonlarga g'amxo'rlik qilishni o'rganishadi. Tabiat bolalar diqqatini, eng avvalo, o'zining go'zalligi, ranglarining yorqinligi, xilma-xilligi, yorqinligi, sir-asrorlari bilan o'ziga jalb qiladi. Shu sababdan Ekologik tarbiya maktabgacha yoshda, maktab davrida, maktabdan keyingi davrda, o'smirlik davrida, o'rta yoshlik davrida hamda keksalik davrida turlicha mazmun, shakl va metodlar hamda yondashuvlarda amalga oshiriladi. Bolalar eng birinchi aniq bilim va tajribani ham aynan tabiatdan oladi. Atrof-muhit bilan bunday aloqa, bir tomondan, bolaning hissiy tajribasini boyitsa, boshqa tomondan, uning tasavvurini kengaytiradi hamda bolaning atrof-muhit haqidagi turli savollari va qiziqishlarini paydo bo'lishiga ulkan hissa qo'shadi. Yosh bolalar odatda, juda qiziquvchan, tabiat hodisalari va narsalariga katta e'tibor bilan qaraydigan bo'lish bilan birga tabiatdagi mayda predmetlarga e'tibor berishadi. Bu esa ota-onalar va o'qituvchilar uchun bolaning atrof-muhit haqida yanada ko'proq bilim olishlari, izlanishlari uchun munosib shart-sharoit yaratib berishini talab qiladi. Ota-onalar va o'qituvchilar oldida turgan bunday vazifalar sirasiga bolalarda atrof-muhit, jonli va jonsiz tabiatga bo'lgan muhabbat va hurmat tuyg'usini rivojlantirish, ularning tabiat haqidagi o'z tasavvurlarini boyitish, bolaga nafaqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki, o'z hissiyotlarini erkin ifoda etish imkoniyatini berish ham juda muhim omil sanaladi. Shu boisdan ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish ularni o'zlarining va



atrofida sodir bo'layotgan barcha hodisani to'g'ri anglash va tahlil qilishga o'rgatadi. Bolalarning o'zi mehr va muhabbatga muhtoj bo'lishi bilan nir qatorda, ular barcha jonzotlarga cheksiz va beqiyos darajada o'zlarining mehr-muhabbatlarini berishga ham qodirdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonida o'quvchilar bilan ishlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi metodlarni ko'rib chiqamiz. Tabiatga ijobiy munosabat nuqtai nazaridan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli

bo'lib, uning davomida ekologik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish qobiliyatlari va atrof-muhitga munosabatni tarbiyalash jarayoni samarali amalga oshiriladigan usul metoddir. Atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishdagi texnika deganda, muayyan usulning o'ziga xos elementi nazarda tutiladi. N.J.Isakulova «Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishda variativ didaktik funksiyalarni quyidagilardan iborat ekanligini alohida qayd etadi:

- ekologik mazmunda mashq bajarish, masalalar yechish, diktinat va bayonlar yozishda qo'shimcha topshiriqlardan foydalanish;
- ekologik mazmundagi darslarni fanlararo bog'lanishda turli uslublarning bir nechtasidan foydalangan holda tashkil etish;
- darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'quvchining turli qiziqishlari asosida turli uslublardan foydalanib olib borish;
- ekologik mazmundagi testlarni o'tkazishda mazmunning bir xilligiga e'tibor bergan holda savol-javoblar xilma-xilligiga erishish;
- fanlararo ekologik tarbiya berish yuzasidan o'quvchi bilimi, ko'nikma va malakalarini baholash xilma-xilligini inobatga olish. Mazkur variativ didaktik funksiyalarning har biri bajarilishida bir vaqtning o'zida har xillikka erishishga e'tibor beriladi» degan edi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda, rolli o'yinlar, yangi metodik texnologiyalar, bayramlar va tadbirlarning roli muhim ahamiyatga ega.

Rolli o'yinlar va tadbirlarda tanish bo'lgan musiqa asarlari, she'rlarni yodlash va yangilarini yaratish juda muhimdir. Bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish bo'yicha ota-onalar bilan ishlashda an'anaviy shakllardan foydalanilinish o'rinli hisoblanadi. Masalan: ota-onalar yig'ilishlari, konsultasiyalar, suhbatlar. Bunda quyidagi kabi mavzularga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi: «Daraxt eking», «Qushlarga yordam bering», «Ona Vatan tabiatini asraylik», «Musaffo



havomizni toza saqlaylik». Ushbu jarayonda bolalar ota-onalari va ustozlari bilan birgalikda faoliyat olib borish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shunday qilib, bolalarga tabiatga ijobiy munosabatni shakllantirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kattalar shaxsiy namuna bo'la olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: O'zbekiston, NMIU, 2018. – B. 570
2. Isakulova N.J. Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. – Toshkent.: 2012. –B.17.
- 3.Bovanova Umida Abduvahabovna: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal: 2022.